MAQOLLAR TARKIBIDAGI ESKIRGAN BIRLIKLAR

Naimaxon Siddiqova | Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqollar xalqning o‘ziga xos dunyoga qarash tarzi, urf-odatlari, tarixi, falsafasi va yashash shakliga oid xususiyatlarini aks ettiradi. Shu bois, maqollar tilning lug‘at boyligida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada o‘zbek maqollari tarkibidagi eskirgan birliklar semantikasi haqida so‘z yuritiladi. Unda tahlilga tortilgan misollarni Shotursun Shomaqsudov va Shuhrat Shorahmedovlar hammuallifligida nashr qilingan “Ma’nolar mahzani” kitobiga kirgan maqollar tashkil qiladi.

Kalit so’zlar | Maqollar, so‘z boyligi, eski tuzilish, so‘z.

Kirish

Ma’lumki, maqollar semantik va grammatik jihatdan tugallangan, teran mazmunli, ko‘p qatlamli, ko‘chma ma’noli, nutqda qo‘llashga qulay va ixcham xalq hikmatlari hisoblanadi. Maqollar xalqning milliy-ma’naviy tabiatini, jamiyat va inson haqidagi qarashlarini, qadriyatlarini, turli fe’l-atvor va harakat-holatlarga munosabatini aks yettiradi. Shuning uchun ham maqollar milliy tafakkurni, til va madaniyat mushtarakligini, tilning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim material sifatida qaraladi. Chunki maqollarda tilning turli davrlardagi o‘zgarishlari, zamonga moslashishi, yangilanishi yoki eskirishi, farqli transformatsiyalarga uchrashi kabilar kuzatiladi. Mutaxassislar ta’kidlaganidek, “Tilshunoslikda maqollarni o‘rganish orqali xalqning dunyoqarashi, madaniyati, til va tafakkurini yanada chuqurroq tushunish imkoniyatiga yega bo‘lamiz. Xalq donoligi majmui bo‘lgan maqollar xalqning borliqqa bo‘lgan munosabatini ifodalashda alohida ahamiuat kasb yetadi. Ular nodir va bebaho boulik sifatida qadimgi rivouatlar, hikouatlar, hikmatli so‘zlar kabi asrdan-asrga, ajdoddan avlodga o‘tib kelmoqda. Maqollar xalqning ijtimoiy strukturasini va shaxslararo munosabatlarni aks ettiradi. Tilshunoslar maqollar orqali jamiyatning ijtimoiy me’yorlari, roli va qoidalarini o‘rganadilar.”[1]

Asosiy qism

Dunyo tilshunosligida xalq maqollarining milliy mentalitetni ifodalash imkoniyatlari, badiiy-estetik, lingvopoetik, lingvokognitiv, pragmalingvistik,

[1] Turdialieva D.S. O‘zbek xalq maqollarining pragmatik xususiyatlari. Filol.fan.dok. (DSc)diss. Farg‘ona,-2025., 26-b.

lingvokulturologik, etnolingvistik, psixolingvistik vazifalari, lingvoestetik ta'sir darajasi, matn tashkil qilish xususiyatlarini aniqlash bilan bog'liq jiddiy tadqiqotlar yaratilgan va bu boradagi ishlar fan taraqqiy etgan sari takomillashib boraveradi. Xalq yaratgan ma'naviy madaniyatning yaxlit bir butunligi bu albatta o'sha xalqning maqollari hisoblanadi. Har bir halqning og'zaki yoki o'zma yodgorligini olib qaraylik, unda bani bashar xotirasida elas-elas saqlanib kelayotgan asotir-afsonalar, uzoq tarix qa'ridagi ibtidoiy tasavvur va tushunchalar, asr-asrlar davomidagi kuzatishlardan xosil bo'lmish hayotiy hikmatlar qaymog'i – insoniy tafakkur tajribasining in'ikosini ko'ramiz.[2] Darhaqiqat, maqollar millat tafakkurini va tilining taraqqiyot tarzini o'rganish uchun muhim manba bo'la oladi. Tillar vaqt o'tishi bilan turli o'zgarishlarga uchrab, zamonga moslashib boradi. Zero, zamonga moslashaolmagan tillar yashovchanligini ham yo'qotadi. O'zbek tili turkiy tilning katta qismini o'zida aks ettirgan va juda katta geografiyada turli shevalarga bo'lingan holda mavjudligini davom ettirgan noyob til hisoblanadi. Shuning uchun tilimizning tarixiy taraqqiyot yo'sinini ko'zdan kechirsak, bunday o'zgarishlarga, leksik-semantik transformatsiyalarga guvoh bo'lamiz.

Xalq maqollari ko'pincha qachon paydo bo'lgani noma'lum bo'lib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan va xalq tilining ajralmas bir qismi sifatida uning nutqini shakllantiradi, bezaydi, ta'sir kuchini oshiradi, hukm chiqarishga ko'maklashadi va xulosalaydi. Ba'zi maqollar vaqt o'tishi bilan butunlay eskirib, iste'moldan chiqishi mumkin, ba'zilarida esa sintaktik struktura saqlangani holda, ayrim unsurlari eskiradi. Tilning paremiologik fondidagi boshqa birliklarga qaraganda maqollar qoliplashganligi sababli vaqt suronlariga chidamli bo'lib, o'zgarishlarga kam uchraydi. Maqollarning qo'llanish doirasi, ifoda ko'lami keng birliklardir. Yuqorida aytib o'tilganidek, maqollar muayyan bir xalqning tarixiy tajribasini o'zida jamlaydi. Ular dunyodagi barcha tillarda mavjud va o'sha xalqning milliy kimligini belgilaydi. Masalan turk tilidagi maqollarni to'plab nashr qilgan taniqli olim Aksoy maqolga shunday ta'rif beradi: "bobolarimizning uzoq tajribalarga asoslangan hukmlarini umumiy qoida, dono fikr yoki nasihat sifatida qoliplashtirgan, xalq tomonidan qabul qilingan o'tkir so'zlarga *ataso'zi* (maqol – ta'kid bizniki N.S.) deyiladi"[3] Shu bois ham odamlarga nasihat berish, ularni ogohlantirish, biron-bir vaziyat yoki hodisa haqida misol keltirish, so'zlashuvga kuch bag'ishlash, his-tuyg'ularni eng qisqa yo'l bilan ifoda etishda maqollarga murojaat qilinadi. Maqollar his-tuyg'ularimizni xoh og'zaki, xoh yozma shaklda eng samarali va ta'sirchan ifoda qilish vositasidir. Maqollar oz so'z bilan ko'p narsani aytish imkoniyatini beruvchi noyob til fenomenidir.

O'zbek xalqining madaniyati, yashash tarzi va dunyoga qarashini ifoda etuvchi maqollarimiz tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik va boshqa fan sohalarida ham muhim birlik sifatida o'rganib kelinadi.[4] Tilshunoslikda bunday

---

[2] Mirzaaxmedova M.Y. Ingliz va o'zbek tillarida maqollarning milliy-madaniy va universal xususiyatlari. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 1. ISSN 2181-1784. P.274 (274-279).

[3] Aksoy, Ö. A. (1984). Atasözleri ve deyimler sözlüğü (Cilt I). İstanbul: İnkılâp Kitabevi Yayınları. -S. 7.

[4] Mirzaev T. O'zbek xalq maqollari.- Toshkent: Sharq, 2012.; Улуғов А. Мақолларнинг бадиий эстетик вазифасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2020. – № 4. – Б. 40-46.; Тошпўлатова Д. "Қутадғу билиг" асаридаги мақоллар таржимаси хусусида (Асарнинг инглиз ва рус тилларига таржималари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. – №5. – Б.71.; Темирова М. Ўзбек

birliklar paremalar tarkibi doirasida o‘rganiladi. “Paremiologik birliklar namunaviu diskurslar hisoblanib, ular ham leksik birliklar singari yaxlit bir shaklga, qauta takrorlanish xususiuatiga yega bo‘lgan, biroq mazkur sifatlardan farq qilgan holda, ular bitta yoki undan ko‘proq, ya’ni maqollar va matallar, hikmatli so‘zlar, latifalar, loflar, yomon ko‘zdan asrovchi duolar, hikouatlar, yertaklar, miflar kabi fikr-mulohazalardan iborat”[5]

Maqollar tarkibidagi eskirgan birliklarni aniqlashda ikki xil holatni e’tiborrga oldik. 1. Maqolning o‘zi eskirgan va u tarixiy manbalarda saqlanib keladi. Ulardan til taraqiyotini ko‘rrsatishda illyustrativ material sifatida foydalaniladi. 2. Maqoldagi morfologik va leksik-semantik jihatdan eskirgan unsurlarni aniqlab izohlash. Biz maqolada shu ikkinchi turdagi maqollar haqida so‘z yuritamiz. Maqollardagi arxaik unsurlarni aniqlash tilning zamonaviy holatini va tarixiy taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi. Bunday birliklar badiiy asarlarda ham qo‘llanadi. Badiiy asarlardagi maqollar tarkibida uchraydigan nofaol unsurlar yoki tarixiy birliklarni tahlil qilish orqali ularning asar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi dalillanadi. Shu sababli, maqolada o‘zbek maqollari tarkibidagi eskirgan unsurlarni aniqlash maqsad qilingan.

Mavzuni yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, statistik, kognitiv tahlil metodlaridan foudalanilgan. Maqolada Shotursun Shomaqsudov va Shuhrat Shorahmedovlar hammuallifligida nashr qilingan “Ma’nolar mahzani” (O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2001)[6] kitobiga kirgan maqollar tashkil qiladi. Tarkibida eskirgan so‘z ishtirok etgan maqollar:

O‘zga yurtning qozisi bo‘lgandan,
O‘z elingning tozisi bo‘l.

Mazkur maqol tarkibidagi “qozi” (sudya) va “tozi” (xizmatkor, yordamchi) so‘zlari eskirgan leksikaga kiradi, chunki ular bugungi kunda kundalik nutqda kam ishlatiladi. “Qozi” o‘rta asrlarda Islom qonunchiligi asosidagi sudlovchi ma’nosida, “tozi” esa xizmatkor yoki past martabali shaxs sifatida qo‘llangan. Maqolning ma’nosi esa o‘z xalqing orasida oddiy, lekin izzatli mavqega ega bo‘lish begona yurtda yuqori martabali, lekin xor bo‘lishdan afzalligini ifodalaydi. Bu maqol vatanparvarlik, o‘z yurtiga sadoqat va o‘z jamiyatidagi muhtaramlikning muhimligini ifodalaydi, begona muhitdagi yuqori lavozimdan ko‘ra o‘z elidagi oddiy, lekin hurmatli hayotni ulug‘laydi.

Qorong‘i qolgan yurtda
Qorashaqshaq podsho bo‘lur.

ва қирғиз халқ мақолларида образлар функцияси // nternational Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11| Issue-12| 2023 Published: 22 12-2023. – Б. 94-100.; Муқимова З. Мақолларнинг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2020. № 5. – Б. 126-130.; Мирзакаримова Ў. “Девону луғотит турк” даги айрим мақолларнинг тил хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. – №3. – Б.31-35.; Маҳмудов Ғ. Шакли ўзгартирилган мақоллар таржимаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. – №3. – Б.47.; Мамажонов А. Мақолларда яширинган маънолар.ФарДУ “Илмий хабарлар” журн.2001.5б.; Maksudova M. “Қутадғу билиг” асаридаги айрим мақолларнинг русча ва инглизча таржималари хусусида // Tarjimashunoslik № 2 (10) / 2016.; Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974. − № 4. – Б.52-55.; Abdurahimova D. O‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik tahlili // Scıentıfıc progress VOLUME 4 | ISSUE 2 | 2023. B. 190-194.

[5] Борботъко В.Г. Принципы формирования дискурса. – Сочи, 1999. – С. 90.

[6]Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.447 б.

Mazkur maqolda *podsho* so‘zi arxaik birlik sanaladi. Maqolning ma’nosi bilimsiz, tartibsiz yoki boshqaruvsiz qolgan jamiyatda (qorong‘i yurtda) hatto qobiliyatsiz, past martabali odam ham (qorashaqshaq) rahbar bo‘lib qolishi mumkinligini anglatadi. Bu maqol jamiyatda bilim, tartib va to‘g‘ri boshqaruvning muhimligini ta’kidlab, ahmoqona rahbarlikka tanqidiy qarashni bildiradi.

Bosh ketsa ham bo‘rk qolar.

Ushbu maqol tarkibidagi “bo‘rk” so‘zi eskirgan leksikaga kiradi, chunki u bugungi kunda kundalik nutqda kam ishlatiladi va “bosh kiyim, do‘ppi” ma’nosini anglatadi. Qadimgi o‘zbek jamiyatida bo‘rk nafaqat bosh kiyim, balki izzat-ikrom, obro‘ va sha’n-shavkat ramzi hisoblangan. Maqolning ma’nosi esa odam o‘z hayotini (boshini) yo‘qotishi mumkin, lekin uning obro‘si, nomi va yaxshi xislatlari (bo‘rk) abadiy qoladi degan falsafiy qarashni anglatadi. Bu maqol insonning o‘z sha’nini, obro‘sini asrashga undab, yaxshi nom bilan yodda qolishning muhimligini ifodalaydi.

Borga bakovul, yo‘qqa yasovul.

Keltirilgan maqol tarkibidagi “bakovul” va “yasovul” so‘zlari eskirgan leksik birlik sanaladi. “Bakovul” eski o‘zbek tilida “podshoh, xon va lashkarlarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o‘zi totib ko‘ruvchi mansabdor; bosh oshpaz (15-asr va undan keyingi davr)” ma’nosini, “yasovul” esa “O‘rta Osiyo xonliklari davrida: yuqori mansabdagi amaldorlarga xizmat qiluvchi qurolli soqchi, posbon” ma’nosini anglatadi. Maqolning ma’nosi mol-dunyosi bor odam atrofida xizmat qiluvchilar (bakovul) ko‘p bo‘lsa, kambag‘al faqat oddiy xizmatkor (yasovul) bo‘lishi mumkinligini ifodalaydi. Bu maqol jamiyatdagi moddiy manfaatlarga qarab munosabatda bo‘lishning yomon odat ekanligini tanqid qiladi va shunday odamlarga nisbatan kinoyani ifodalaydi.

Boyning bojasi ko‘p, qulning xo‘jasi ko‘p.

Maqol tarkibidagi “boja” va “xo‘ja” so‘zlari eskirgan leksikaga kiradi, chunki ular bugungi kunda maqoldagi ma’nosi bilan qo‘llanmaydi. “Boja” bugungi kunda “Opa-singillarning erlari (bir-biriga nisbatan)” ma’nosini ifodalasa, qadimda “boy odamning xizmatchisi yoki yordamchisi” ma’nosini, “xo‘ja” esa “ega, xo‘jayin” ma’nosini anglatgan. Maqolning ma’nosi boy odamning atrofida xizmat qiluvchilar ko‘p bo‘lsa, kambag‘al yoki qulning esa faqat unga buyruq beruvchi xo‘jayinlari ko‘p bo‘lishini ifodalaydi. Maqol nutqqa kuchli kesatiq va ta’sirchanlikni ta’minlaydi.

Bir qishga quyon chorig‘i ham chidaydi.

Mazkur maqol tarkibidagi “chorig‘” so‘zi eskirgan leksik birlik bo‘lib, bugungi kunda nutqda deyarli ishlatilmaydi va “kovush, oyoq kiyimi” ma’nosini anglatadi. Qadimgi o‘zbek tilida “chorig‘” oddiy, yengil oyoq kiyimni ifodalagan. Maqolning ma’nosi esa vaqtinchalik yechimlar yoki sifatsiz narsalar (masalan, quyon chorig‘i) qisqa muddatli muammolarni hal qilishga yarasa-da, uzoq muddatga chidamaydi, degan falsafani anglatadi. Bu maqol nutqda vaqtinchalik choralarning yetarli emasligini isbotlash maqsadida qo‘llanadi. Bunda chorig‘ arxaik birligi kuchli ta’kid oladi va nutqning ta’sirchan chiqishini ta’minlaydi.

Bir odam omoch bilan, yettovlon cho‘mich bilan.

Keltirilgan maqol tarkibidagi “omoch” so‘zi eskirgan leksik birlik sanaladi. “Omoch” eski o‘zbek tilida “Ulov qo‘shib, yer haydaladigan metall tishli qadimgi eng oddiy yog‘och yoki temir asbob” ma’nosini anglatadi.

Beri bo'lsa- emchimaan, nari bo'lsa – kimchiman.

O'tmishda xalq tibbiy yorlamini xalq tabobatining haqiqiy bilimdonlari bilan bir qatorda nodon tabib, azanxon, parixon, eshon, mulla va boshqalardan ham oladi. Xalq og'zaki adabiyoti asarlarida ham, jumladan, maqollarda ham, asosiy fikr sifatida xalq orasida yoyilgan nodon va mutasaddilarning tanqidi qamrab olinadi. Shuni ko'rish orqali e'tibor qilsak, hayot kechirishi yo'liga kirib olgan bunday "shifokor"larning asl basharasi ochib tashlangan. Yuqoridagi maqolni nodon tabiblar tilidan aytiladilar va ularning o'zlariga nisbatan kinayu tarzida qo'llashgan. Maqolada nodon tabib tilidan: "Kasaling aqaldan beri bo'lsa, emchiman (ya'ni, tuzataman), ammo aqaldan nari bo'lsa, kimchiman (ya'ni, bunday kasallikning qarshisida men hech kim emasman, oqiman, tuzatolmayman, ko'limdan kelmaydi)", deyilmoqchi.

Xulosa

Aytish mumkinki, maqollar fikrni ixcham va ta'sirchan ruhda ifodalash imkoniga ega birliklardir. Maqollar his-tuyg'ularimizni xoh og'zaki, xoh yozma shaklda eng samarali va ta'sirchan ifoda qilish vositasidir. Maqollar biror mavzu haqida oz so'z bilan ko'p narsani aytish imkonini beruvchi nodir til boyligidir. Mazkur vositalardan mahorat bilan foudalana oladigan kishilar el orasida hozirjavob, shirinsuxan, chechan, notiq, shirinso'z kabi sifatlashlar bilan e'zozlanadi. Maqol tarkibidagi arxaik unsurlarning semantik va poetik tadqiqi natijalaridan dars materiallari, lug'at va turli qo'llanmalar tayyorlashda hamda ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. Abdurahimova D. O'zbek xalq maqollarining lingvopoetik tahlili // Scıentıfic progress VOLUME 4 | ISSUE 2 | 2023. B. 190-194.
2. Aksoy, Ö. A. (1984). Atasözleri ve deyimler sözlüğü (Cilt I). İstanbul: İnkılâp Kitabevi Yayınları. -S. 7.
3. Maksudova M. "Қутадғу билиг" асаридаги айрим мақолларнинг русча ва инглизча таржималари хусусида // Tarjimashunoslik № 2 (10) / 2016.
4. Mirzaaxmedova M.Y. Ingliz va o'zbek tillarida maqollarning milliy-madaniy va universal xususiyatlari. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 1. ISSN 2181-1784. P.274 (274-279).
5. Mirzaev T. O'zbek xalq maqollari.- Toshkent: Sharq, 2012.
6. Turdialieva D.S. O'zbek xalq maqollarining pragmatik xususiyatlari. Filol.fan.dok. (DSc)diss. Farg'ona,-2025., 26-b.
7. Борботъко В.Г. Принципы формирования дискурса. – Сочи, 1999. – С. 90.
8. Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974. − № 4. – Б.52-55.
9. Мамажонов А. Мақолларда яширинган маънолар.ФарДУ "Илмий хабарлар" журн.2001.5б.
10. Маҳмудов Ғ. Шакли ўзгартирилган мақоллар таржимаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. – №3. – Б.47.
11. Мирзакаримова Ў. "Девону луғотит турк" даги айрим мақолларнинг тил хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. – №3. – Б.31-35.

12. Муқимова З. Мақолларнинг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2020. № 5. – Б. 126-130.

13. Тошпўлатова Д. “Қутадғу билиг” асаридаги мақоллар таржимаси хусусида (Асарнинг инглиз ва рус тилларига таржималари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. – №5. – Б.71.

14. Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақолларида образлар функцияси // nternational Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11| Issue-12| 2023 Published: 22 12-2023. – Б. 94-100.

15. Улуғов А. Мақолларнинг бадиий эстетик вазифасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2020. – № 4. – Б. 40-46.

16. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.447 б.